

# STEAM O'YIN USULLARINI MAKTABGACHA TA'LIMDA QO'LLASHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

**N.O.Saidova**  
*FarDU, katta o'qituvchi, p.f.f.d.(PhD)*  
**Z.Pirmatova**  
*FarDU, magistr*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) o'yin usullarining maktabgacha ta'limga pedagogik ahamiyatiga bag'ishlangan. STEAM yondashuvi bolalarning ijodkorligini rivojlantirish, fan va texnologiyaga qiziqishini oshirish, shuningdek, mantiqiy va analitik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada STEAM o'yinlarining qiziqarli va ta'limi xususiyatlari, amaliy misollar va ushbu yondashuvning maktabgacha yoshdagagi bolalar rivojlanishiga ta'siri yoritib berilgan. Ushbu yondashuv bolalarning ko'p qirrali rivojlanishi va kelajak ko'nikmalariga ega bo'lishida muhim o'rinni tutadi.

**Kalit so'zlar:** STEAM, maktabgacha ta'lim, o'yin usullari, ijodkorlik, texnologiya, muhandislik, san'at, fan, pedagogik ahamiyat, rivojlanish.

## **Kirish**

Maktabgacha ta'lim bolalarning dastlabki rivojlanish bosqichi bo'lib, bu davrda ularning aqliy, ijodiy va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllanadi. STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, and Mathematics) yondashuvi esa ta'lim tizimida bolalar ijodkorligini rivojlantirish, muammolarni hal etish ko'nikmalarini shakllantirish va kelajak kasblariga tayyorlashda muhim o'rinni tutadi.

Mazkur maqolada STEAM o'yin usullarini maktabgacha ta'linda qo'llashning pedagogik ahamiyatini yoritiladi.

### *STEAM nima va uning mohiyati*

STEAM yondashuvi an'anaviy ta'limni interfaol va ijodiy o'quv faoliyati bilan boyitishga qaratilgan. Bu usul: Fan (Science): Bolalarda tabiatni o'rganishga qiziqish uyg'otadi. Texnologiya (Technology): Texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasini rivojlantiradi. Muhandislik (Engineering): Qurilish va dizayn masalalarini hal qilishga yordam beradi. San'at (Arts): Estetik did va ijodkorlikni rivojlantiradi. Matematika (Mathematics): Analitik fikrlash va mantiqiy tushunchalarini kuchaytiradi. Maktabgacha yoshda STEAM yondashuvining o'rni. Maktabgacha yoshdagagi bolalar o'yin orqali o'rganishga moyil bo'lishadi. Shu bois, **STEAM o'yin usullari:**

1. Qiziqarli va faollikni oshiruvchi: Bolalar o'yin orqali fan va texnologiya bilan tanishadi. Masalan, suv va qumni aralashtirish orqali fizik hodisalarini o'rganish.
2. Ijodiy fikrlashni shakllantiruvchi: Muhandislik o'yinlarida o'z qo'llari bilan narsa yasash orqali ijodiy fikrlash rivojlanadi.

3. Hamkorlik va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi: Guruh bo‘lib muammolarni hal qilish orqali ijtimoiy o‘zaro aloqalar yaxshilanadi.

### ***STEAM o‘yinlarining amaliy qo‘llanilishi***

Qurilish o‘yinlari: Lego yoki boshqa qurilish materiallari bilan ishlash bolalarning muhandislik va matematik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

San’at mashg‘ulotlari: Rassomlik va musiqiy o‘yinlar orqali bolalarning ijodkorlik qobiliyatlari rivojlanadi.

Ilmiy tajribalar: Masalan, suv va muzning holatini kuzatish orqali bolalar fan asoslarini o‘rganadi.

Dasturlashning boshlang‘ich usullari: Oddiy kodlash o‘yinlari orqali bolalar texnologiya va logik fikrlashga oid bilimlarni oladi.

### ***Pedagogik ahamiyati***

STEAM o‘yin usullarining pedagogik ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Holistik rivojlanish: Bolalarning bir vaqtning o‘zida bir nechta sohalar bo‘yicha rivojlanishiga yordam beradi.

2. Kreativ fikrlashni rivojlantirish: Yangi g‘oyalarni sinab ko‘rish va mustaqil qaror qabul qilishni o‘rgatadi

3. Motivatsiya va qiziqishni oshirish: O‘yin shaklidagi ta’lim jarayoni bolalarda o‘rganishga ishtiyoqni oshiradi.

4. Kelajak ko‘nikmalariga tayyorlash: Zamonaviy texnologiyalarni tushunish va ulardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantiradi.

### ***STEAM yondashuvining maktabgacha ta’limda qo‘llanilishi bir necha pedagogik jihatlarga ega:***

1. Qiziqishni oshirish: Bolalar o‘yin shaklida bilimlarni o‘zlashtiradi. Masalan, suv va qum bilan tajriba o‘tkazish orqali ular fizik hodisalarini o‘rganadi.

2. Ijodiy va muhandislik qobiliyatlarini rivojlantirish: Qurilish o‘yinlari, masalan, Lego orqali bolalar muhandislik va dizayn asoslarini tushunib boradi.

3. Fan va texnologiyaga kirish: Oddiy tajribalar va texnologiyalardan foydalanish orqali bolalarda ilm-fanga qiziqish shakllanadi. Masalan, oddiy robotlar bilan ishlash dastlabki texnologik tushunchalarni beradi.

4. Ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish: Guruh bo‘lib muammolarni hal qilish orqali bolalar birgalikda ishlash, muloqot qilish va fikr almashishni o‘rganadi. Bu yondashuv bolalarni bir vaqtning o‘zida bir nechta sohalarda rivojlantirib, ularning ijodiy, mantiqiy va amaliy ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, STEAM bolalarni XXI asrning muhim ko‘nikmalariga tayyorlashda samarali uslub hisoblanadi.

### **Xulosa**

STEAM o‘yin usullari maktabgacha ta’limda bolalarning ko‘p qirrali rivojlanishini ta’minlaydigan samarali yondashuvdir.

Ushbu yondashuv nafaqat bolalarning bilim olish jarayonini qiziqarli qiladi, balki ularni ijodkor va ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi. Shu sababli, pedagoglar STEAM usullarini ta’lim jarayonida faol qo‘llashi muhimdir.

STEAM o‘yin usullari maktabgacha ta’limda bolalarning ko‘p qirrali rivojlanishini ta’minlaydi.

Ushbu yondashuv bolalarning ijodkorligini oshirish, mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘yin orqali beriladigan ta’lim bolalar uchun nafaqat qiziqarli, balki samarali bo‘lib, ularni kelajakdagi fan va texnologiyalar bilan chambarchas bog‘langan dunyoga tayyorlaydi. Shuningdek, ushbu yondashuv ularning shaxsiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega. Shu sababli pedagoglar maktabgacha ta’limda STEAM o‘yin usullarini joriy qilishga e’tibor qaratishi lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. 1. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasi.
2. Pedagogik innovatsiyalar bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar.
- Resnick, M. Lifelong Kindergarten: Cultivating Creativity through Projects, Passion, Peers, and Play.
3. Vasilyeva, M. STEAM Education in Early Childhood: Perspectives and Practices.
4. UNESCO. Education for the 21st Century: Skills for the Future.
5. Maktabgacha ta’lim muassasasining har xil yosh guruqlarida elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirishga oid ishlarni tashkil qilish, NO Saidova, Academic research in educational sciences 2 (11), 1612-1614
6. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarda elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirishda tangram usulidan foydalanish, NO Saidova, TS Axmedova, Молодые ученые 1 (18), 28-30